

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)



SAN‘ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-PRAKSIOLOGIK MAZMUNI

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishning konseptual-praksiologik mazmuni yoritilgan bo‘lib, maqola mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarining amaliyotga tatbiqi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: san‘at, rejissyor, rejissura, praksiologiya, amaliyot, pedagogika, metodika, mutolaa, adabiy ta‘lim, adabiy asar.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-ПРАКСИОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЕРОВ НА ОСНОВЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается концептуальное и прaksiologическое содержание формирования профессиональной компетентности будущих режиссеров на основе литературных произведений, а также рассматривается практическое применение результатов исследований, проведенных по данной теме.

Ключевые слова: искусство, режиссер, режиссура, прaksiология, практика, педагогика, методика, чтение, литературное образование, литературное произведение.

CONCEPTUAL-PRAKSIOLOGICAL CONTENT OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS ON THE BASIS OF LITERARY WORKS

Annotation. This article discusses the conceptual-praksiological content of developing the professional competence of future directors on the basis of literary works, and the practical application of research conducted on the topic of the article is studied.

Keywords: art, director, directing, praxeology, practice, pedagogy, methodology, reading, literary education, literary work.

Kirish. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishning konseptual-praksiologik mazmuni va mavjud holatni o‘rganish jarayoni – bu

rejissura va ijro mahoratidagi individuallik, ijodiy uslublar spetsifikasi, sahnalashtirish va ssenografiya masalalariga oid nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilganlik holatini tizimli tatqiq etishdan iboratdir.

Praksiologiya – insonning predmetli-o‘zgartiruvchan, amaliy faoliyati to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot. Praksiologiya falsafiy tushuncha bo‘lib, uning yagona talqini yo‘q. Praksiologiya – bu inson amaliy faoliyatining samaradorligi haqidagi ta’limotlarning umumiy majmui bo‘lib, bizning talqinimizda bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan nazariyaning amaliyotga tatbiq etilishidir.

Faylasuf tadqiqotchilarning “Falsafaning praksiologik vazifasi falsafiy g‘oya va nazariyaning ijtimoiy hayotga amaliy tatbiq etilishi bilan izohlanadi. Har qanday amaliy faoliyat mustahkam ilmiy nazariyaga asoslanmasa, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin” [4, 34] – degan fikrlariga tayangan holda bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan nazariy tadqiqotlarning amaliyotga tatbiq etilishini konseptual xarakterda o‘rganish tadqiqot maqsadiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan yaxlit tadqiqot ishi olib borilmagan bo‘lsada mavzuga dahldorlik xarakteridagi tadqiqot ishlari o‘rganildi.

Bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlashda adabiy asarlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari yuzasidan V.A.Lakeyev o‘z tadqiqotida teatr reformatori K.S.Stanislavskiyning adabiy asarlar ustida ishlash tajribasidan adabiyot fanini o‘qitishda foydalanish usullarini [19], S.D.Cherkasskiy rejissura va pedagogika uzviyliligida M.V.Sulimov rejissyorlik maktabining shakllanishi va undagi pedagogik jarayonlarni [24], bo‘lajak aktyor va rejissyorlarni tayyorlash jarayonida xorijlik talabalarni kasbiy muloqatga o‘rgatishda matnga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida ishlash usullarini I.N.Radushinskaya [22] tadqiq etgan.

Bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini ijtimoiy-madaniy faoliyat kesimida O.A.Kiryanova tadqiq etib, ijtimoiy-madaniy faoliyatda teatrlashtirilgan tomoshalarni sahnalashtirishda bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlash komponentlari, mezonlari, ko‘rsatkichlari va kasbiy tayyorlik darajalari o‘rganilgan. Bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlashda ta’lim modeli ishlab chiqilgan [18].

Tadqiqotchi O.A.Antonova tomonidan teatr maktabi pedagogikasi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida o‘rganilib, teatr maktabi pedagogikasining madaniy-tarixiy tipologiyasi aniqlanadi va asoslanadi hamda teatr ta’limining paradigmatic xususiyatlarini aniqlab, mustaqil ta’lim turi sifatida tadqiq etadi. Teatr maktabi pedagogikasining uslubiy jihatlari va tamoyillari taklif etiladi [17]. Shuningdek, teatr maktabi nazariyasi va amaliyotida teatr pedagogikasi alohida yo‘nalish ekanligi A.B.Nikitina tomonidan o‘rganilib, ta’limda teatr, dramapedagogika, ijtimoiy spektakl, ijodiy loyiha, maktabda teatr festivali kabi tushunchalarga izoh berilib, ularning funktsiyalari yoritilgan, jarayonlar Rossiya va boshqa xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan [21].

Tadqiqotchi Z.H.Qosimova tomonidan ijodkor talaba shaxsiga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida aktyorlik mahorati fanini o‘qitishning samaradorligiga erishish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Mazkur jarayonda sahna asarlarini mazmun jihatdan o‘rganishni eng maqbul usullar orqali amalga oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan bumerang, keys-stadi texnologiyalari, SWOT-tahlil metodi, Venn diagrammasidan foydalanish yo‘llari namunalar asosida ko‘rsatib berilgan [9].

Tadqiqotchi M.R.Rahmonovning tadqiqot ishi rejissura tarixi va uning shakllanish bosqichlarini o‘rganishda metodologik ahamiyat kasb etib, tadqiqotda qadimiy zamonlardan XVIII-asrga qadar bo‘lgan davrda teatr san’atining holati davrlashtirilib tadqiq etilgan [10].

Ye.I.Levina O‘zbekistonda teatr ta’limining paydo bo‘lishi, teatr pedagogikasi, aktyorlarni o‘qitishning milliy maktabi, teatr pedagogikasi: aktyor-pedagog, rejissyor-pedagoglarning faoliyati, ularning uslubiy-ijodiy yondoshuvi haqida tadqiqot ishi olib borgan [20].

Tadqiqotchi M.T.Tulyaxodjayeva tomonidan o‘rganilgan o‘zbek drama teatri rejissurasi tadqiqoti bo‘lajak rejissyorlarni tayyorlashda fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, XX-asr o‘zbek drama teatri rejissurasidagi tajribalar umumlashtiriladi, zamonaviy muammolari tadqiq etilgan [23]. Dramatik teatr rejissurasining shakllanish yo‘llari, taraqqiyoti, holati, muammolari, milliy sahna an‘analari va rejissura novatorlik izlanishlarining o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, 20-40 – yillar rejissurasi, 50-60 – yil rejissurasi, 70-80 – yillar rejissurasi, hozirgi zamon (90-yillar) rejissurasi kabi davrlarda o‘rganilgan.

Muhokama va natija. Rejissurada janrlar masalasi bo‘lajak sahnaviy asarning yo‘nalishini, stilini belgilashda asos bo‘lib, janrlar (epos, lirika, drama) o‘z o‘rnida ichki shakliy xilma-xillikka ega bo‘lib, rejissuraning muhim komponenti hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak rejissyorlar ta’lim jarayonida janrlar spetsifikasi va uning nazariyasi haqida to‘laqonli ma’lumotga ega bo‘lmog‘i lozim.

Komediya san’atining XX-asrdagi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini S.M.Qodirova tadqiq etgan bo‘lib, bir asr davomida yaratilgan va sahnalashtirilgan komedik asarlar va ularning sahnaviy talqini tahlil etiladi. O‘zbek komediya san’ati janr xususiyatlari, ifoda vositalari, xalq ijodi va qadimiy teatr an‘analari, jahon komediografiyasida kuzatilgan va kuzatilayotgan janr turlari va uslubiy yo‘nalishlar bilan bog‘liqlik tadqiq etilgan [8]. Yevropa shaklidagi yangi o‘zbek teatrining XX-asr boshidan to oxirigacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari aniqlangan hamda davrlashtirilgan, shu bosqichlarda komediya san’atining shakllanishi va taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, janr turlari, ijrochilik va sahnalashtirish uslublari o‘rganilgan.

O.Q.Tojiboyeva Markaziy Osiyo teatlari tarixida xalq eposiga bag‘ishlangan tadqiqot ishi olib borgan. Bunda xalq eposi va Markaziy Osiyo sahna san’ati, milliy professional teatr san’ati shakllanishi va rivojlanishida epik asarlarning ahamiyati, xalq dostonlarini adabiy lashtirish va sahnalashtirish tamoyillari, an’anaviy epos va uning yangi davr sahnasidagi badiiy talqini tadqiq etilgan bo‘lib, xalq epik dostonlarining professional teatrdagi talqin qilinishi an’anasining ilk davridan boshlab, kechinma san’ati tabiatining epik obrazga munosabati, qolaversa, istiqbol

davri dramaturgiyasi va teatr san'atining ijodiy izlanishlari, yangicha uslub va vositalar topish masalasi ilmiy muammo sifatida o'rganilgan [14]. Tadqiqot ishida o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik teatrlarida sahnalashtirilgan xalq dostonlari o'ziga xos dramaturgik uslublar paydo qilib, turli rejissyorlik maktablarini yaratishga xizmat qilganligi isbotlangan.

Tadqiqotchi B.A.Shodiyev mustaqillik davri (1991-2005-yillar) teatrlashgan maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolarini o'rganib, mazkur davrda maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi bo'yicha to'plangan tajribalar va professionalizm masalalari o'rganilgan [12]. Asosiy e'tibor Toshkent shahrida o'tkazilgan Mustaqillik bayrami teatrlashgan tomoshalarda badiiy yaxlitlik muammosi, Navro'z tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari, qadimiy shaharlar va buyuk siymolarga bag'ishlangan bayram tomoshalarida mavzu va badiiy yechim masalasiga qaratilgan bo'lib, tomoshada ishtirok etayotgan badiiy jamoalarning repertuarida va rejissurada badiiylik va badiiy yaxlitlik masalalari qayd etilgan yillar kesimida tadqiq etilgan hamda rejissyorlar B.Yo'ldoshev, R.Hamidov ijodiy uslublari qiyosiy tahlil qilingan.

Bo'lajak rejissyorlarni tayyorlashda dramaturgiya, rejissura, aktyorlik mahorati kabi komponentlar qatorida ssenografiyaning ham o'rni ahamiyatli bo'lib, talabaning tasviriy va sahna san'ati sintezi asosidagi fantaziyasini rivojlantirib, badiiy obrazlar orqali spektakl g'oyasi va maqsadini tomoshabinga yetkazishdagi badiiy omildir.

XX-asr o'zbek teatri ssenografiyasi tarixiy-nazariy aspektlari D.M.Qodirova tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, o'zbek an'anaviy teatrining o'ziga xos sahna makoni va sahna vositalarini o'rganilgan, o'zbek tilida ssenografiya san'atiga aloqador ilmiy atamalar ishlab chiqilgan va tadqiqotga joriy etilgan [7]. Spektakllarning sahna makoni, sahna muhiti, teatr dekorasiyalari uslub va usullari, ifodaviy vositalari, aks ettirilayotgan davr va voqealar kechayotgan muhitning shakllanishida, xilma-xil obrazlarning gavdalanishida, rejissyorlik yechimi spektaklning badiiy yechimiga aylanishida ssenografiyaning o'rnini aniqlagan holda, mavzuning XX-asr mobaynidagi rivojlanishini tadqiq etib, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarini belgilab bergan.

Tadqiqotchi A.H.Schott teatrda o'qitish texnikasi, teatrdagi faoliyat, teatrning tarkibiy tuzilmasi, teatrda badiiy timsol masalalarini, shuningdek aktyor tanasining plastik harakati, umuman olganda aktyor tanasining jismoniy va ruhiy holati, bu borada madaniyatshunoslik, tilshunoslik, falsafa, psixologiya, nevrologiya, ta'lim va san'at sohasidagi so'nggi tadqiqotlar natijasida aktyor tanasining hissiy jihatlarini [11], H.R.Bean XX asrda amerika teatrlaridagi she'riy va dramatik asarlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarni ijtimoiy-madaniy muammo sifatida tadqiq etib, teatr repertuarini amerikalik shoirlar she'riy asarlari bilan boyitish masalalarini o'rganishgan [1].

Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini badiiy asarlar asosida rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili tadqiqotimiz uchun metodologik manba bo'lib, ta'limning turli bosqichlarida kitobxonlik, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyati, badiiy

asarlar orqali yoshlarni turli yod unsurlardan saqlash, ularning tafakkurini o‘stirish hamda kitobxonlikni rivojlantirish yuzasidan interaktiv yondoshuvlar o‘rganildi.

Kitob mutolaasi asosida ijtimoiy madaniy taraqqiyotni ta‘minlash, barkamol inson va yuksak ma‘naviyatli shaxslarni shakllantirish yuzasidan A.O.Umarov [15], kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish masalalari E.Yo‘ldoshev [16], o‘quv jarayonining metodik ta‘minotida kutubxonachi bilan o‘quv fanlari o‘qituvchilari hamkorligining pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlari D.G‘aniyeva [5], o‘zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o‘smirlar ma‘naviyatini shakllantirish, kutubxonalarning kitob mutolaasini rivojlantirishdagi huquqiy va funksional asoslari, jumladan oila kitobxonligini belgilab beruvchi meyoriy hujjatlarni yaratish muammolari S.Chiniyeva [3] tomonidan tahlil va tadqiq etilgan.

Britaniya o‘rta maktab o‘quvchilarining kitob mutolaasi va qarashlari, o‘smirlarning kitob mutolaasi va televizor, kompyuter o‘yinlarini hamda virtual mahsulotlarga sarflanayotgan vaqti P.Benton tomonidan tahlil qilingan bo‘lsa [2], C.Clark va A.Foster tomonidan bolalar va yoshlarning o‘qish odatlari va afzalliklari, uni qanday va qaysi sharoitda tashkil etish yuzasidan tadqiqot olib borilgan va tavsiyalar berilgan [13]. Amerikalik tadqiqotchilar M.Y.Lipson va K.K.Wixson tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarga o‘qish va yozish, kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirishda interaktiv yondoshuv usullaridan foydalanish yuzasidan tadqiqot olib borishgan [6].

Qayd etish lozimki mavzu yuzasidan olib borilgan tahliliy tadqiqotlar natijasida bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish yuzasidan yaxlit tadqiqot ishi olib borilmaganligi, bu esa tadqiqotimizning asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishning konseptual-praksiologik mazmuni va mavjud holatni o‘rganish tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Shu kunga qadar tadqiqot ishi obekti sifatida rejissura san‘ati, kitobxonlik madaniyati, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari bir-biri bilan bog‘langan holda o‘rganilmagan;

bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish metodikasi yaxlit holda tadqiqot etilmagan;

bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish an‘anaviy va ustoz-shogird an‘analariga asoslanib, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, interfaol pedagogik usullardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bean, H. R. (2010). Poetry “n acts: the cultural politics of twentieth-century American poets” theater [University of Iowa]. <https://doi.org/10.17077/etd.ytzz0d4g>.
2. Benton, P. Conflicting cultures: reflections on the reading and viewing of secondary school pupils. Oxford Review of Education, 1995. – 256 p.
3. Chiniyeva S.A. O‘zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o‘smirlar ma‘naviyatini shakllantirish: Ped. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2006. – 148 b.

4. Falsafa asoslari. (Tuzuvchi va mas’ul muharrir: Q.Nazarov). Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – B. 34.
5. G‘aniyeva D.A. O‘quv jarayonining metodik ta’minotida kutubxonachi bilan o‘quv fanlari o‘qituvchilari hamkorligi (axborot-resurs markazlari misolida). Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2008. – 176 b.
6. Lipson, M.Y., Wixson, K.K. (1997). Assessment and instruction of reading and writing disability: an interactive approach. Second Edition. – New York: Longman, – 792 p.
7. Qodirova D.M. XX asr o‘zbek teatri ssenografiyasi: tarkib topishi va rivojlanish jarayonlari: Dis. ... san. fan. dok. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti, 2010. – 258 b.
8. Qodirova S.M. XX asr o‘zbek teatrida komediya san’ati (shakllanish va taraqqiyot muammolari): Dis. ... san. fan. dokt. – Toshkent: O‘zbekiston Badiiy akademiyasi San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2003. – 325 b.
9. Qosimova Z.H. Oliy ta’limda bo‘lajak aktyorlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent: 2017, 5-son. – B. 33-37.
10. Rahmonov M.R. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: Fan, 1975. – 286 b.
11. Schott, A.H. (2013). Teaching and learning in technical theater: activity, composition and embodiment [University of Iowa]. <https://doi.org/10.17077/etd.hr69vux3>.
12. Shodiyev B.A. Teatrlashgan maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejissurasi muammolari (1991-2005 yillar): Dis. ... san. fan. dok. – Toshkent: San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2007. – 321 b.
13. Clark, C. and Foster, A. (2005). Children’s and Young People’s Reading Habits and Preferences The who, what, why, where and when. London. National Literacy Trust. (<https://www.researchgate.net/publication/252735773>). – 95 p.
14. Tojiboyeva O.Q. Markaziy Osiyo teatrlari tarixida xalq eposining o‘rni: Dis. ... san. fan. dokt. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti, 2011. – 261 b.
15. Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta’minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli: Sotsiologiya fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2005. – 274 b.
16. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 128 b;
17. Антонова О.А. Школьная театральная педагогика как социально-культурный феномен: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургского Государственного университета сервиса и экономики, 2006. – 33 с.
18. Кирьянова О.А. Педагогические условия подготовки будущих режиссеров к деятельности в социально-культурной сфере: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Иркутск: Иркутский государственный педагогический университет, 2008. – 20 с.

19. Лакеев В.А. Методические аспекты использования наследия К.С.Станиславского в преподавании литературы: Дис. ... канд. пед. наук. – Ленинград: Ленинградский государственный педагогический институт, 1981. – 201 с.

20. Левина Е.И. Театральное образование Узбекистана (к вопросу воспитания национального актера): Дис. ... канд. иск. наук. – Ташкент: Научно-исследовательский институт Искусствознания имени Хамзы, 1985. – 162 с.

21. Никитина А.Б. Театральная педагогика в образовании в России и за рубежом // Школьные технологии. – Москва: 2019. - № 5. – Стр. 47-51.

22. Радужинская И.Н. Тексториентированный подход к обучению профессиональному общению иностранных учащихся творческих вузов: на примере обучения будущих актеров и режиссёров: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва: Российского университета дружбы народов, 2007. – 19 с.

23. Туляходжаева М.Т. Режиссура узбекского драматического театра (тенденции развития и современные проблемы): Дис. ... докт. искуc. наук. – Ташкент: Научно-исследовательский институт Искусствознания имени Хамзы Хакимзаде Ниязи, 1996. – 256 с.

24. Черкасский С.Д. Проблема режиссерско-педагогической преемственности: формирование режиссерской школы М.В.Сулимова: Автореф. дис. ... канд. иск. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургской государственной академии театрального искусства, 2003. – 28 с.